

**Ўқиш-кишини билимдон,  
Суҳбат-топқир,  
Ёзиш-интизомли қилади.**

**Сукрот**





**3-MAVZU: GLOBALASHUV  
HAMDA IQTISODIY  
INTEGRATSIYALLASHUVNING  
KUCHAYIB BORISHIDA  
INVESTITSIYA JARAYONLARI**





## O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

**1. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVIDA  
XORIJIY INVESTITSİYALARNING O`RNI**


**2. KIOTO PROTOKOLINING MUSAFFO RIVOJLANISH  
MEXANIZMI DOIRASIDA INVESTITSIYA  
LOYIHALARINI TAYYORLASH VA AMALGA  
OSHIRISH**

**3. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA  
LOYIHALARINI ISHLAB CHIQUISH**

**4. INVESTITSİYALARNING EKSPORTI VA IMPORTI.**



- O`zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega.

The top of the slide features five circles arranged horizontally. From left to right, the colors and styles are: a solid light purple circle, a white circle with a light purple outline, a solid light purple circle, a white circle with a light purple outline, and a solid light purple circle.

“...кеча фақат хом ашё махсулотларини ишлаб чиқаришга ихтисослаштирилган Ўзбекистон бугун дунё харитасида ўзининг муносиб ўрнини эгаллашга, бошқа тараққий топган мамлакатлар авваламбор, АҚШ, Ғарбдаги демократик давлатлар, шарқдаги Япония, Корея, Малайзия ёки шунга ўхшаш давлатларга тенг бўлишни ўз олдига мақсад қилиб қўяр экан, бунга биринчи галдаги чет эл сармоялари, чет эл инвестицияси ниҳоятда катта аҳамият касб этади. Ушбу давлатларнинг тарихи шуни кўрсатадики, агар бу хорижий мамлакатларга сармоя келмаса, инвестиция келмаса, ҳеч қачон бу давлатлар бугунги ривожланиш даражасига кўтарила олмас эди”.

**Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o`rganmasdan, dunyoning etakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O`zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o`zgarishlar amalga oshirilgan ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Ma'lumki xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish garovi, iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.**



Yaqin yillargacha faqat xom ashyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan O`zbekiston bugun dunyo xaritasida o`zining munosib o`rnini egallashga, boshqa taraqqiy topgan mamlakatlar, avvalambor, AQSh, G`arbdagi demokratik davlatlar, sharqdagi Yaponiya, Koreya, Malayziya yoki shunga o`xshash davlatlarga teng bo`lishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yar ekan, bunda birinchi galdagi chet el sarmoyalari, chet el investitsiyasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.



**Globalashuv jarayoniga qo`shilish - bu dunyoning etakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo`lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o`zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir.**



**Globalashuv jarayoniga** iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator belgilar ham xosdir.



**Xalqaro kapitallar oqimi** - bu ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o`sha tomonga oqib o`tadi. Bu haqda bevosita va portfel investitsiyalar hajmining umumiy o`sishi, qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmining ortishi, evrovaluta bozorlaridagi operatsiyalar miqyosining oshib borishi va boshqalar darak beradi.



## ● **Kioto Protokoli -**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o`zgarishi to`g`risidagi Hadli Konventsiyasiga (IO`HK) 1997 yil 11 dekabrda qabul qilingan, O`zbekiston Respublikasi tomonidan 1999 yil 20 avgustda ratifikatsiya qilingan va 2005 yil 16 fevraldan boshlab kuchga kirgan bo`lib, “parnik effekti”ni hosil qiluvchi gazlarni atmosferaga chiqarishni qisqartirish mexanizmlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi



# Киото Протоколининг Мусаффо ривожланиш механизми доирасида инвестиция лойиҳаларини тайёрлаш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомга 1-ИЛОВА

## **Мусаффо ривожланиш механизми бўйича мўлжалланаётган инвестиция лойиҳаси тўғрисидаги лойиҳа бўйича буюртманодаги ахборотлар**


1. Лойиҳанинг мақсади, фаолият соҳаси ва тури.
2. Мулкчилик шакллари кўрсатилган ҳолда, лойиҳа қатнашчилари тўғрисидаги муфассал ахборот.
3. Объектнинг жойлашган жойи.
4. Мавжуд фаолият тўғрисида ахборот.
5. Лойиҳанинг муфассал тавсифи.
6. Бошланғич шароитларда (МРМ лойиҳаси амалга оширилмасдан) парник газлари чиқиндиларининг ҳар йилги қадимги ва ҳисобланган ҳажми.
7. Фойдаланиш учун режалаштирилаётган технологиялар ва асбоб-ускуналар тўғрисида ахборот.
8. Лойиҳанинг, асбоб-ускуналарнинг ва қўшимча инвестицияларга бўлган эҳтиёжнинг мўлжалланаётган умумий қиймати тўғрисида ахборот.
9. Лойиҳани амалга оширишнинг дастлабки режа-жадвали.
10. Парник газлари чиқиндиларини қисқартиришнинг кутилаётган ҳажми.
11. Лойиҳанинг иқтисодий самарадорлиги бўйича дастлабки ҳисоб-китоблар, лойиҳани амалга оширишнинг экологик ва ижтимоий самаралари.
12. Лойиҳани амалга оширишнинг тавсия этилаётган манбалари ва механизми.
13. Лойиҳанинг Барқарор ривожланиш миллий мезонларига мувофиқлиги.



O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 6 dekabrda PQ-525-son Qqaroriga muvofiq Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo`yicha (MRM) **Idoralararo kengash** tashkil etilgan. O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo`yicha Milliy organ hisoblanadi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- **Birinchi bosqichda** loyiha tashabbuskori tomonidan MRM Milliy organiga yozma **ariza** kiritiladi, arizaga MRM bo`yicha nazarda tutilayotgan investitsiya loyihasi to`g`risidagi **umumiy axborot** ilova qilinadi. Loyiha bo`yicha buyurtmanoma **O`zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mitasi** bilan kelishiladi.



## **Ikkinchi bosqichda** tashabbuskor tomonidan


MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, unga quyidagilar ilova qilinadi:

- muzokaralar davomida erishilgan dastlabki va yakuniy qiyosiy jadvallar, loyiha tashabbuskori tomonidan tanlangan taklif ko`rsatilgan holdagi tanlov qatnashchilari takliflari;
- MRM tartibotlariga muvofiq ishlab chiqilgan rus va ingliz tillaridagi loyiha-texnik hujjatlar;
- loyihani amalga oshirishning oylar bo`yicha jadvali;
- Gidrometeorologiya xizmati markazining loyiha bo`yicha ijobiy xulosasi;
- O`zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mitasining loyiha bo`yicha ijobiy ekologik xulosasi.



Quyidagilar Idoralararo kengash tomonidan loyihani baholashning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligi;***
- loyihaning ekologiya talablariga muvofiqligi;***
- texnologik asbob-uskunalarining zamonaviy sifat standartlariga muvofiqligi.***



## **Iqtisodiy mezonlar:**

***-tayyor mahsulot birligi hisobiga energiya va xom ashyo sarfini kamaytirish;***

***-zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo`li bilan ishlab chiqarish samaradorligini yoki tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;***

***-O`zbekiston Respublikasida bozorning xususiy sektorini rivojlantirishga ko`maklashish.***

## **Ekologik mezonlar:**

*-atrof-muhitning saqlanishiga va yomonlashishining oldini olishga ko`maklashish;*

*-tabiiy xom ashyo sarfini va ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytirish;*

*-xom ashyodan takroriy foydalanishga va tiklanayotgan tabiiy resurslardan foydalanishga yo`naltirilgan texnologiyalarni joriy etish;*

*-atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish.*

## **Ijtimoiy mezonlar:**

- aholining ish bilan bandligining o`shishiga va haqiqiy daromadlarining oshishiga ko`maklashish;**
- loyihani amalga oshirishga jalb etilgan xodimlarning va loyiha amalga oshirilayotgan hududda yashaydigan aholining sog`lig`ini yaxshilash;**
- aholining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalaridan xabardorligini oshirish.**

# Loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish

**1-variant**

Investitsiya loyihalari bo`yicha, 2 va 3-variantlar bo`yicha amalga oshiriladigan loyihalardan tashqari

**DTIA**

Tanlov hujjatlarini tayyorlash/  
moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish

**TIA**

**Ishchi hujjatlar**

**2-variant**

Yakka tartibdagi loyihani ishlab chiqishda "boshqa tarmoqlar" va ijtimoiy soha ob'ektlari bo`yicha

**DTIH**

Tanlov hujjatlarini tayyorlash/moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish

**TIH**

**Ishchi hujjatlar**

**3-variant**

Namunaviy loyihani ishlab chiqishda "boshqa tarmoqlar" va ijtimoiy soha ob'ektlari bo`yicha

**IL**

**Tanlov hujjatlarini tayyorlash**

# Vakolatli ekspertiza organlari

<b>Vakolatli ekspertiza organlari</b>	<b>Xulosa natijasi (tavsiya etildi/ rad etildi)</b>
Iqtisodiyot vazirligi	
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	
"Davarxitektqurilish" qo`mitasi	
Moliya vazirligi	
Vakolatli bank (banklar)	

## **Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi**

1. Loyiha maqsadi (rezyume).
2. Loyiha buyurtmachisi.
3. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari).
4. Marketing tahlili (bozorni o`rganish, marketing kontseptsiyasi).
5. Moddiy resurslar.
6. Ob'ektning joylashgan joyi.
7. Loyihalashtirish va texnologiya.
8. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo`shimcha xarajatlar.
9. Mehnat resurslari.
10. Loyihani amalga oshirish sxemalari.
11. Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash.
12. Xulosalar ( Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari, noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari, loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash).
13. Milliy va xorijiy valutada (xarajatlar alohida aks ettirilgan holda) moliyaviy va iqtisodiy ko`rsatkichlar aks ettirilishi kerak, ularning sxema ko`rinishlari mavjud bo`lishi kerak.
14. Tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo`lishi kerak:-yuridik hujjatlar;-kontrakt hujjatlari;-smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar;-ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar;-tayyor mahsulotni sotish va xom ashyo, materiallar xarid qilish marketing tadqiqotlari bo`yicha hujjatlar.



One-stop solution of **professionalism**  
 Business partner with **reliability**  
 Your success, our **commitment**



# Xalqaro kapitallar oqimi - bu ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir.



Tobora kengayib borayotgan kapitallar bozorining baynalmilallashuv jarayoni bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar o`rtasidagi kapital oqimi hajmining ortib borishi bilan ajralib turadi.



***Bevosita investitsiyalar*** – bu kapitalning to`g`ridan-to`g`ri eksporti bo`lib, investitsiya kirituvchiga shu korxonaga ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxonaga asosiy kompaniyaning xorijdagi shahobchasiga aylanadi.



*Portfel investitsiyalar* - bu shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarining aktsiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi.



news.pgorod.net



*Kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlarda uchun kapitallarning migratsiyasi quyidagicha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:*

-chetga chiqarilayotgan kapital o'rnini qoplovchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilmaslik chetga kapital chiqaruvchi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin;

-kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlarda uchun kapitalni chetga chiqarish ularda bandlik darajasining pasayishiga olib keladi;

-chetga kapital chiqarish mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir kiladi.



# ***Kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlar uchun esa quyidagi ijobiy tomonlar xos:***

- boshqariladigan kapital importi mamlakat iqtisodiy o`shishiga yordam beradi;
- jalb qilingan kapital qo`shimcha ish o`rinlarini yaratadi;
- xorijiy kapital yangi texnologiyalarni olib keladi, samarali menejment esa mamlakatda ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT)ni tezlashtiradi;
- kapitalning kirib kelishi retsipient mamlakat to`lov balansining yaxshilanishiga olib keladi.



## **O`z navbatida kapitalni jalb qilishning salbiy oqibatlari ham mavjud:**

- xorijiy kapital milliy kapitalning o`rnini egallab, uni foyda normasi yuqori tarmoqlardan siqib chiqaradi, natijada ma'lum sharoitlar ta'sirida mamlakat iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi va uning iqtisodiy holati xavf ostida qolishi mumkin;***
- kapital importi ko`pincha retsipient mamlakat bozorlarida o`z hayotiy tsiklini o`tab bo`lgan tovarlarni o`tkazish bilan bog`liq, shuningdek, ishlab chiqarishdan sifatsizligi aniqlanganligi bois olib tashlangan tovarlar bilan bog`liq bo`ladi;***
- ssuda kapitali importi mamlakat tashqi qarzining ko`payishiga olib keladi;***
- moliyaviy inqirozlar natijasida va fond bozorlaridan kapitalning oqib ketishi mamlakat valutasining barqarorligiga va umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatga jiddiy zarar etkazadi.***

Misol uchun 1997 yilda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inqiroz va uning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini keltirish mumkin. Xorij investorlarining ketishlari oqibatida Janubi-Sharqiy Osiyoda inqiroz boshlangan. Inqiroz asosan Janubiy Koreya va Rossiyaga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Rossiyaning asosiy valyuta manbai - neft narxining tushishi oqibatida mamlakat valyutasining qadri tushib ketgan.








**KIOTO PROTOKOLINI O'ZBEKISTONGA  
JALB QILISHDAN KO'ZLANGAN MAQSAD VA  
VAZIFALAR.**

# Kioto protokoli majburiyatlariga 6 issiqxona gazi kiritilgan:

- **karbonat anhidrid ( $\text{CO}_2$ ),**
- **metan ( $\text{CH}_4$ ),**
- **azot oksidi ( $\text{N}_2\text{O}$ ),**
- **gidroftoruglerodlar (GFU),**
- **perftoruglerodlar (PFU)**
- **oltingugurt geksaftoridi ( $\text{SF}_6$ ).**




**Hozirgi paytda Kioto protokoli  
barcha sanoati rivojlangan  
mamlakatlarni hisobga olganda **84**  
**mamlakat** tomonidan imzolangan  
va **141 mamlakat** tomonidan  
ratifikasiya qilingan** (2005 – yil, 2 fevral holatiga binoan)

# **Ma'lumot: Rivojlangan mamlakatlar issiqxona gazlari chiqindilarini chiqarish ulushlari (% hisobida)**

- **AQSh – 36,1%**
- **Yevropa Ittifoqi – 30%,**
- **Rossiya – 17,4%,**
- **Yaponiya - 8,5%,**
- **Avstraliya va Yangi Zelandiya – 2,3%,**
- **Kanada – 3,3% ni tashkil etadi**

# Issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish bo'yicha majburiyatlar mamlakatlar uchun turli xil

- Vengriya - 6% ga
- Yaponiya - 6% ga
- Polsha chiqindilarni - 6% ga,
- AQSh – 7% ga,
- Yevropa Ittifoqi – 8% ga qisqartirishlari zarur.



Yangi Zelandiya, Rossiya Federasiyasi va Ukraina chiqindilar darajasini **1990** yil darajasidan oshirmasliklari kerak.

# Konvensiyaning asosiy tamoyillari:






- **Ogohlantirish tamoyili;**
- **imkoniyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda mamlakatlarning umumiy, lekin differensiyalashtirilgan ma'suliyatlari;**
- **barqaror rivojlanish tamoyilining saqlanib qolishi.**

# Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga yuklatilgan umumiy ma'suliyatlar:

- Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha milliy dasturlarning qabul qilinishini va rivojlanishini ta'minlash;
- issiqxona gazlari "yutkichlarini" ishlatish va saqlash bo'yicha ko'maklashish;
- tegishli ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik siyosatning o'tkazilishi bilan birgalikda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni hisobga olish;
- ilmiy-texnik masalalar va ta'lim sohasida hamkorlik;
- ilmiy tadqiqotlar va ma'lumot almashinuvi bo'yicha ko'maklashish.

Dastlabki ro'yxatga olingan loyihalar:  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
**2006 yil 6 dekabr**dagi **525-sonli qaroriga**  
muvofiq amalga oshirilayotgan  
«**Navoiyazot**» ochiq aksiyadorlik jamiyati  
25-sex, 33-liniyasida azot oksidini  
qisqartirish, hamda, «**Navoiyazot**» ochiq  
aksiyadorlik jamiyati 25-sex, 22-liniyasida  
azot oksidini qisqartirish loyihalari bo'ldi.

«O'z kimyosanoat» DAK Yaponiyaning «Mitsubishi Korporeyshn» kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirgan 4 ta Musaffo rivojlanish mexanizmi loyihalari ro'yxatga olingan. Loyihalar O'zbekistonda milliy organ sifatida Iqtisodiyot vazirligining texnik ko'magi va muvofiqlashtirishi asosida «O'z kimyosanoat» DAKning Chirchiq, Farg'ona va Navoiydagi azot kislotasi ishlab chiqaruvchi kimyo zavodlaridagi 3 ta sexda amalga oshirilmoqda.




Mutaxassislarning baholariga ko'ra, mazkur loyihalarning amalga oshirilishi chiqindi gazlarning chiqarilishini qariyb yiliga **1 million tonnagacha** SO<sub>2</sub>-ekvivalenti hajmida qisqartirilishini ta'minlaydi.



Loyihalarning moliyalashtirilishi


«**Mitsubisi Korporeyshn**»

korporatsiyasi tomonidan O'zbekiston  
hukumatining kafolatisiz amalga  
oshiriladi, kompaniyaga buning  
evaziga olinuvchi chiqindilarni  
**sertifikatlangan qisqartilishining** bir  
qismi beriladi



Mazkur **6 ta** loyiha bo'yicha umumiy investitsiya **xarajatlari 6 million AQSh dollarini** tashkil etadi, chiqindilarni sertifikatlangan qisqartilishi sotuvidan olinuvchi **yillik daromad esa qariyb 10 million yevroni** tashkil qiladi.

XIX asrdayoq olimlar karbonat angidrid (uglerod dioksidi) quyosh energiyasini atmosferada ushlab qolib, yer usti qoplamini isishiga olib kelishini bilganlar. Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi va sanoat taraqqiyotning boshlanishi bilan turli xil qazilma uglerod yoqilg'ining (neft, ko'mir, gaz) xalqaro miqyosdagi ishlatilishi oshadi, va bu atmosferada uglerod dioksidining konsentratsiyasini ko'payishiga olib keladi.



**Qor va muz qoplami.** 60-yillarning ohiridan boshlab qor va muz qoplamlari uzunligining 10-15% qisqarishi, ko'l va daryolarning har yilgi qor bilan qoplanish davrining ikki xaftaga qisqarishi kuzatilgan. Tog' muzlarining yoppasiga chekinishi va Arktika muzlarining qalinligining qisqarishi kuzatilgan.

**Dunyo okeanining sathi XX asr** davomida Dunyo okeanining sathi **10-20 santimetrga** ko'tarildi. Buning sababi dengiz suvlarining issiqlik natijasida kengayishi va global issiqlashuv bilan bog'liq bo'lgan qutb muzlarning erishidir.

Iqlimning global o'zgarishi **o'ta issiq kunlar soni, qurg'oqchilik, suv toshqinlar, keskin havo isishi va yengil sovuq tushishi, sel va qattiq shamollar** sonining ko'payishida aks ettiriladi. Sug'urta kompaniyalarining baholashi bo'yicha, iqtisodiy yuqotishlar yiliga **90 milliard dollarni** tashkil etgan.

# Iqlim O'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo Ekspertlar Guruhi.

- Bu guruh iqlim o'zgarishi masalasiga doir barcha ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni umumlashtirib, dunyo hamjamiyatiga davriy **Baholovchi Dokladlari** yordamida taqdim etadi.

Iqlim O'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo Ekspertlar Guruhi **1988 yilda** BMT va **Xalqaro Meteorologik Tashkilotning** atrof muhit Dasturida tashkil etilgan. Bu guruh butun dunyo olimlari hamdo'stligidir va ular o'z kuchlarini **iqlim tizimini saqlab qolish bo'yicha xalqaro va milliy choralarini koordinatsiya qilish** uchun ilmiy asosga ega ma'lumotlarni taqdim etish uchun **birlashdilar**.


## Hukumatlararo Ekspertlar Guruhining vazifalari:

- Iqlim tizimlari va iqlim o'zgarishiga taalluqli bilimlar holatini baholash (I ishchi guruh);
- Iqlim o'zgarishining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini o'rganish (II ishchi guruh);
- Iqlim o'zgarishlariga ko'nikish yo'llarini aniqlash va o'rganish (II ishchi guruh);
- Issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish choralarini aniqlash va o'rganish (III ishchi guruh).

**Toza rivojlanish mexanizmi** loyihalarida xalqaro darajada ishtirok etish istagini bildirgan mamlakatlar uchun bajarilishi zarur bo'lgan quyidagi majburiyatlar mavjud

- Mamlakat Kioto protokolini ratifikasiya qilishi zarur
- Mamlakat Toza rivojlanish mexanizmi bo'yicha Xukumat nomidan potensial sarmoyadorlar bilan muzokaralar olib boruvchi va Toza rivojlanish mexanizmi loyihalariga aloqador hujjatlar, issiqxona gazlarining qisqartirilgan chiqindilarini sotish bo'yicha shartnomalarni imzolashga ma'sul milliy tashkilotni ta'sis etishi shart.

O'zbekiston hududida o'rta yillik haroratlarning 5,2 gradusdan 1.0 gradusgacha ko'tarilish ehtimoli bor (1951-1980 yillar normasiga nisbatan).



# Iqlim o'zgarishi respublikamiz aholisining salomatligiga qay tarzda ta'sir ko'rsatadi?

- **stressning oshishi** va u bilan bog'liq kasalliklar (**yurakning ishemiya kasalligi, nafas olish organlari, nerv sistemasi, buyrak kasalliklari** va h.k)lar sonining ko'payishi. Bunga tabiiy manbali **infeksiyalar** natijasida **yuqumli kasalliklar** soning ortishi, ichimlik suvi sifatining yomonlashishi va suvning ekologik taqchilikka uchragan hududlarda yetishmasligi natijasida **infeksiyalar** sonining ortishi misol bo'la oladi.

# Foydalanilgan adabiyotlar:

- Bekmurodov A.Sh., Qorieva YO.K., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar.O`quv qo`llanma.-T.: TDIU, 2010.-196 bet.
- Ivashenko A.G. Inostrannyye investitsii. Uchebnoe posobie. –M.: KNORUS, 2010. – 272 str.
- Bodi, Zvi, Keyn, Aleks, Markus, Alan. Printsipy investitsiy, 4-e izdanie. Uchebnoe posobie. –M.: Vilyams, 2008. — 984 str.
- Zubchenko L.A. Inostrannyye investitsii. Uchebnoe posobie. –M.: Knigodel, 2010. – 184 str.
- Damodaran A. Investitsionnaya otsenka: Instrumenty i metody otsenki lyubyx aktivov. Uchebnoe posobie. -M.: Alpina Biznes Buks, 2007. - 1340 str.
- A.Yu. Andrianov, SV. Valdaytsev, P.V. Vorobev i dr. Investitsii. Uchebnik - M.: Prospekt, 2008. - 584 str.

# Internet saytlar:

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)–Ўзбекистон Республикаси Давлат ҳокимияти портали

[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)–Ўзбекистон Республикаси Президентининг Матбуот хизмати расмий сайти

[www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)–Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестиция ва савдо Вазирлигининг расмий сайти

[www.omad.uz](http://www.omad.uz)–Бизнес ривож учун ахборот портали

[www.UzA.Uz](http://www.UzA.Uz)–Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги расмий сайти

[www.review.uz](http://www.review.uz)

<http://www.uza.uz/>

<http://www.uzreport.com/>

Internet //http.www infoman.uz

www.NewsUZ.com

[www.mf.uz](http://www.mf.uz)

[www.uzaart.uz](http://www.uzaart.uz)

[Htp\\www.climate.uz](http://www.climate.uz)

[www.climate.uz.uz.section](http://www.climate.uz.uz.section)

[www.undp/uz.uz.news](http://www.undp/uz.uz.news)

# ETIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!

